

MATEMATIKA DARSIDA “BINGO” O’YINLI METODINING QO’LLANILISHI.

Shukurov Xursan Gadoyevich

Norova Intizor Haqberdiyevna

Turdiyev Yorqin Ochilovich.

Matematika fani o’qituvchilari, BuxMTI akademik litseyi

Annotatsiya. Maqola hozirgi zamonaviy ta`limda kridet-modul tizimida talabalarga oliv matematika faniga doir mukammal bo`lgan funksiya jadvalarini o`rganishlariga bingo o`yin orqali osongina o`rganishadi. Bingo o`yinli metod to`rt bosqichdan iborat bo`ladi. Bu metod orqali o`qituvchilar ham kam energiya va kam kuch orqali fanga ma`lumotlarni talabalarga osongina yetkazib bera oladi.

Kalit so`zlar: bingo o`yinli metod, modul-kridet, jadval, funksiya, formula

Zamonaviy ta`limni tashkil etishga qo`yiladigan muhim talablardan biri – bu ortiqcha ruxiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuqori natijalarga erishishdi. Qisqa vaqt ichida muayyan nazariy bilimlarni o`quvchilarga yetkazib berish, ularda ma`lum bir ko`nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, ta`lim oluvchilar faolyatini nazorat etish, ular tomonidan egallagan bilim ko`nikma va malakalar darajasini aniqlash ta`lim metodiga bog`liq.

Ta`lim metodi – ta`limiy maqsadni amalga oshirish bo`yicha ta`lim beruvchi va ta`lim oluvchi o`rtasidagi hamkorlik faolyatidek murakkab jarayonning asosi hisoblanadi. Ta`lim metodini asosiy qoidasi ta`lim berish maqsadiga mos kelishidir. Masalan, bingo o`yinli metodlardan o`quv mashg`ulotlarida foydalanish o`quvchilarni kasbiy bilim, ko`nikma va malakalarni shakllantirishga, rivojlantirishga, ijobiy fikrlash qobiliyatini o`stirishga yordam beradi. Bunday darslarga tahsil oluvchilarning bilim olish jarayoni o`yin faoliyati orqali uyg`unlashtiriladi. Tahsil oluvchilarning ta`lim olish faoliyati o`yin faoliyati bilan uyg`unlashishi bingo o`yinli mashg`ulotlarni namoyon etadi.

Bingo o`yinli mashg`ulotlarni ta`lim oluvchilarning bilim olish va o`yin faoliyatiga qarab: syujetli-rolli o`yinlar; ijodiy o`yinlar; ishbilarmon o`yinlar; konferensiylar, o`yin-mashqlarga ajratish mumkin. Bingo o`yinli mashg`ulotlarda ta`lim oluvchilar darsda faol ishtirok etadilar. Buning uchun o`quvchilar zarur bilim, ko`nikma va malakalarga ega bo`lishi, bundan tashqari, ularda guruh jamoasi o`rtasida hamkorlik, o`zaro yordam berish tushunchalari shakllangan bo`lishi lozim. Bingo o`yinli mashg`ulotlar o`quvchilarni harakatlar ketmasetligini to`g`ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o`rganilayotgan o`quv predmeti asosida ko`p, xilma-xil fikrlardan, ma`lumotlardan keraklisini tanlab olishni yordam beradi.

Bingo o‘yinli ta’lim usuli samaradorligining asosiy mezonlari quyidagilardir:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo‘llashning mosligi va tejamkorligi; uni qo‘llashda soddalik va osonlik; nafaqat yaxshi natijalarini, balki ularga erishishning yuqori ishonchlilagini ta’minlay olishi.

O‘qituvchi - pedagog bingo o‘yinli mashg‘ulotlarni o‘tkazishga puxta tayyorgarlik ko‘rishi va uni o‘tkazishda quyidagi bingo talablarga rioya qilishi talab etiladi:

- bingo o‘yinli mashg‘ulotlar dasturda qayd etilgan mavzularning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarini hal qilishga qaratilgan bo‘lishi;

- jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag‘ishlanib, ular o‘yin davomida hal qilinishi;

- barkamol shaxsni tarbiyalash tamoyillariga va sharqona odob-axloq me’yorlariga mos kelishi;

- o‘yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma-ketlikda bo‘lishi;

- mashg‘ulot davomida bingo tamoyillarga amal qilinishi va eng kam vaqt va kuch sarflanishiga erishish. Bingo o‘yinli mashg‘ulotlarda o‘qituvchi faoliyati va o‘quvchi faoliyati doirasi aniq belgilanadi, ta’limni tashkil etish texnologiyasi, metodikasi ko‘rsatiladi. Bingo o‘yinli mashg‘ulotning tarkibiy elementlari quyidagilardan iborat:

I - bosqich. Mo‘ljal olish. Bunda mashg‘ulotning asosiy maqsadi va vazifalari aytiladi, o‘yin maqsadi tushuntiriladi. “Bingo” o‘yinli mashg‘ulotda matematika faniga oid jadval ko`rinishdagi formulalarni oson va ko`p vaqtini olmasdan yod olishlari bilan. Mashg‘ulotda ayrim o‘yin shartlari qabul qilinadi. Masalan, har bir o‘yinchilarning jadvaldagi har bir formulani topishi shart; har bir o‘yinchiga faqat bitta savol berilishi mumkin; belgilagan formulasini jamoa orasida muhokama qilinmaydi; o‘quvchilarga vaqt beriladi shu vaqt oralig`ida talabalar qo`llaridagi yozgan formulalarni izohlab bera olishi lozim.

II - bosqich. Tayyorlov. Bu bosqichda har bir talaba o`zini yoniga tayyor jadvalni oladi va undagi formulalarga bir tanishib chiqadilar. O‘yinni olib boruvchi(ya’ni o‘qituvchi), undagi ishtirokchilar esa talabalar.

III - bosqich. O‘yinni o‘tkazish. Ishtirokchilar yani talabalar o‘zlariga berilgan daftarlari yoki qog`ozlariga jadval chizib oladilar. Olib boruvchi yoki o‘qtuvchi doskaga huddi talabalar chizgankabi jadval chizadi. Talabalar qo`liga tarqatilgan mavzuga oid formula jadvalini o`ng va chap qismga ajratib olinadi ishtirokchilar chizgan jadvallariga o`ng qismdagi funksiyalarni yozib chiqadilar. Olib boruvchi esa chap qismdagi funksiyalarni tanlab-tanlab yozadi ishtirokchilarning to`ldirgan jadvalidagi chap qismga mos o`ng qismdagi funksiyalarni topadi toki jadvalni to`la to`ldirguncha to`ldirgan ishtirokchi bingo deb aytadi. Hamma formulalarni to`g`ri topgan ishtirokchi o‘yin g`olibiga aylanadi va raxbatlantiruvchi ballar bilan baholanadi.

IV - bosqich. Tahlil qilish. Bu bosqichda jarayon tahlil qilinadi, natijalar muhokama qilinadi, o‘yin real hayat bilpan belgilangan. Ishtirokchilar yani bingo o`yinda g`olib bo`lgan talabaga 2 minut vaqt beriladi va shu vaqt ichida talaba o`zidagi formulalarni to`g`riligini isbotlaydi. Bu bingo o`yin har bir talabaning mustaqil fikr va qatiyatlikka olib keladi.

Ta’lim va tarbiya vositasi sifatida bingo o‘yinli o‘quv mashg‘ulotlaridan foydalanish ham o‘qituvchi, ham o‘quvchida katta qiziqish uyg‘otadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Raximov O.D, Turg`unov O.M, Mustafayev K.O. Oliy talimda masofaviy o`qitishni tashkil etish. // Qarshi 2012yil.
2. Tajiiev M, Alimov A.Ya. Pedagogik texnologiya-talim jarayoniga tadbig`i, // “Tafakkur”, Toshkent-2010 y.